

**IBN XALDUN FALSAFADAGI ERKINLIKNI JAMIYATDAGI
INSON MUNOSABATLARIDA TUTGAN O'RNI**

Raximjanova Dilnavoz Sunnat qizi

“ALFRAGANUS UNIVERSITY” nodavlat oliy ta'lim tashkiloti

katta o'qituvchisi, PhD

Annotatsiya. Maqolada sharq falsafasining yirik nomoyondasi Ibn Xaldunning erkinlikni jamiyat hayoti bilan bog'lab tahlil etgan fikrlari o'rganilgan. Uning erkinlik insonning ta'sir kuchi va doirasi bilan turli xil miqdorda bo'lishi haqidagi qarashlari yoritilib berilgan. Erkinlikni insonlar munosabatidagi o'rniga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: erkinlik, ta'sir kuchi, ta'sir doirasi, jamiyat, inson, o'ylash, aks ettirish, iroda erkinligi.

Ibn Xaldun asosiy e'tiborini jamiyatning iqtisodiy ahvoriga qaratgan bo'lsada, undan erkinlikni bir uchini topib olish mumkin. Demak, jamiyatdagi katta ta'sir kuchiga ega shaxslardan tortib to umuman ta'sir qila olmaydiganlargacha bo'lgan shaxslar haqida so'z borganda erkinlik bilan nozik bog'liqlikni topish mumkin. Hozir mana shu munosabatlar yoritilib o'tiladi.

“Ammo odamlar orasidagi ta'sir har xil darajada bo'ladi. Eng yuqori darajani podshohlar egallaydi, ularning ustidan hech qanday hokimiyat yo'q, eng quyi darajani esa o'zlariga o'xshaganlarga na zarar yetkaza olmaydiganlar, yoki na foyda keltira olmaydiganlar egallaydi. Bu ikki chegara chetlari o'rtasida ko'plab bosqichlar mavjud - shunday qilib, Olloh o'z yaratgan jonzotlarini oqilona boshqaradi, har biriga o'z mavqeiga ko'ra hayot uchun vositalarni bergan, ularning ne'matlarni olishini osonlashtirgan va hayot kechirishlari uchun imkon yaratgan. Insoniyat naslining mavjudligi va bardavomligi imkoni faqat odamlar hayot ne'matlarini olishda bir-birlariga yordam berganlarida mavjud bo'ladi. Insonning yolg'iz mavjudligini iloji yo'qligi va agar bunga imkon berilsa ham (odam yolg'iz

yashashi mumkinligiga), unda uning mavjudligi xavfsiz bo'la olmasligi isbotlangan”¹.

Jamiyat va hayotdagi ajralishlar har birini o'ziga xos o'rnini belgilanganligidan dalolat beradi. Jamiyatning ta'sir doirasining yuqori va quyi bosqichlarini o'rtasidagi munosabat aynan erkinlik masalasini ko'tarib chiqadi. Ya'ni birlari ularning ustidan hukumronlik qiluvchilar yo'qligi bois harakatlarini erkin amalga oshiradilar. Quyi bosqichdagilar esa o'z-o'zidan ta'sir doiralariga ega bo'lmaganliklari uchun ma'lum bir darajada boshqalarga bog'liq, tobega aylanadilar.

“Ammo odamlarning bu o'zaro yordami faqat majburlikdan kelib chiqadi, aksariyat hollarda ular butun insoniyat uchun ne'mat nima ekanligini tushunmaganliklari va yana qodir Tangri ularga Iroda erkinligini berganligi sababli ham bu yuz beradi hamda ular o'zlarining harakatlarini faqat tabiatga ergashishdan tashqari, o'ylash va aks ettirish orqali amalga oshiradilar. Shunday qilib, odam boshqalarga yordam berishdan qochadi; u bunga majbur qilinishi kerak. Shuning uchun, qodir Tangrining inson turini mavjudligi haqidagi oqilona niyatini amalga oshirish uchun boshqa odamlarni o'z foydalari uchun ishlashga majbur qiladigan undovchi, turtki beruvchiga o'xshagani kerak. Bu qodir Tangrining so'zlarining ma'nosi: “Ba'zilaringiz boshqalarni xizmatga jalb qilishlari uchun ba'zilaringizni boshqalardan ustun qo'ydik. Va bu janoblarning inoyati odamlar to'plagan narsadan yaxshiroqdir”².

Inson irodasi haqida gap ketar ekan, Ibn Xaldun uning erkinligini ta'kidlaydi. Ya'ni insonlar aynan shu erkinlik orqali fikrlaydilar, ma'lum bir paydo bo'lgan masalalar bo'yicha tafakkur yuritadilar. Erkinlik va majburiyatlarini ham aql yordami bilan amalga oshirishlari hamda tabiatga ergashish bilan kifoyalanmasliklari orqali ajralib turadilar. Insonlar bir-birlari uchun turtki vazifasini o'taydilar, to'g'rirog'i ma'lum bir shaxslar boshqa birlariga ta'sir etgan holatda harakatga chorlab turadilar. Erkinliklarning ma'lum ko'rinishdagi

¹ Григорян С.Н., Сагадеев А.В. Избранные произведения мыслителей стран ближнего и среднего востока IX-XIV вв. – М., Соцэкиэ, 1961. – С. 605-606.

² O'sha manba, С. 605-606.

chegaralanishi aynan mana shu munosabatlarda ko'rinadi. Agar insonlarga erk berilsa, ular na boshqalar va na o'zlari uchun foydali va ko'maklashuvchi ishlar qilishdan qochadilar, degan fikrni ilgari surgan holda Ibn Xaldun odamlarni majburlovchilar, erklarini cheklovchilar bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi. Tabiatan insonlar boshqalarga yordam berishni istashmaganlari uchun majburiyat tuyg'usini uyg'otuvchilar bo'lishi zarurligini ham eslatib o'tadi. Uyg'otuvchilar harakat qilishni istamaydiganlarga turtki bergan holda, ularni faoliyat yuritishga chorlaydilar. Bu yondashuv, ya'ni ta'sir etish munosabatlari Nyutonning fizikadagi mashhur mexanika qonunlarini eslatib yuboradi. Jumladan, harakatlar biror ta'sir ostida yuz berishi determenizmdagi sabab oqibat zanjirini ishlashini ham bildirib turadi.

“Endi biz ta'sir etuvchi holat nimani anglatishini tushuntiramiz. Ushbu hokimyat, buning natijasida bir kishi boshqalarni erkin tasarruf etadi, shunda u ayrimlarga izn berishi va man etishi mumkin, ularni zararli narsalardan qochishga undash va ularda foydali narsalarga intilishni uyg'otish maqsadida ularni majburlash orqali hukmronlik qiladi. U ham adolatga, ham din ko'rsatmalariga, ham boshqaruvga oid ilm-fanga va bundan tashqari, ba'zan o'z xohishiga mos kelgan holda harakat qiladi...”³

Ibn Xaldun bu kabi fikrlarni ifodalagan paytida jamiyatdagi o'zaro munosabatlarda mana shunday ko'rinishdagi holatlar uchrashi tabiiy bo'lgan. Ya'ni insonlarni harakatlantiruvchilar insonlarni o'zi sanaladi. Shu o'rinda, boshqaruvchilar boshqalardan bir pag'ona yuqori turgan holatlarida boshqa harakat qilishni istamaydiganlarni faoliyat qilishlarini ta'minlash vazifasini o'taydilar. Demak, bo'ysunuvchilar erkin harakat bu yerda majburiyat bilan almashadi. Chunki agar ularning xohish-istaklariga qarab ish yuritiladigan bo'lsalar jamiyatda hech qanday o'zgarish kuzatilmaydi. Insonlar nafaqat boshqalarning foydasini, balki o'zlari uchun ham biron bir yaxshilikni ko'zlab ish amalga oshirmaydilar. Shunday ekan ularni majburlash, harakatga chorlash uchun tashqi turtkiga muxtojlik seziladi. Hukmronlik qiluvchi shaxslar esa ularni o'zlarining irodasiga bo'ysundiradilar.

³ O'sha manba, C. 605-606.
www.pedagoglar.org

Shu orqali ularni tobelashtirgan holda erkinliklarini saqlab qoladilar. Bu holat jamiyat hayotida tabiiy jarayonga aylanadi. Ya'ni rahbarlar o'zlarining o'zi mustaqil ish bajara olishlari va o'zgalarni ham harakatlantiruvchi kuch bo'la olishlari kabi imtiyozlari orqali harakatga keltirayotgan shaxslarining erkinligini chegaralaydilar, kamaytiradilar. Bunga sabab ularda aynan shunday yuqori darajaga ega hislatlarning mavjud emasligidir. Turtki beruvchi shaxslar yuqori darajaga o'zlarining aqlari, ilmlari, tajribalari, axloqiy hislatlari orqali erishadilar.

“Shunday qilib, biron bir shahar yoki mamlakat aholisining bir guruhi unga bo'ysunadigan boshqa guruh ustidan ma'lum bir kuchga ega va quyi guruhga mansub har bir kishi uning ustida turgan guruhga tegishli bo'lgan kishidan ta'sir ulushini olishga intiladi; bunday ta'sirga ega bo'lgan shaxs o'zining ta'sir ulushiga qarab, undan past bo'lganlarga nisbatan ulkan erkin faoliyatlarga ega bo'ladilar. Shu sababli, ta'sir etuvchi mavqe tirikchilikka zarur vositalarni qo'lga kirirtishning barcha turdagilari odamlar uchun muhim ahamiyat kasb etadi; ushbu shaxs qaysi guruhga yoki qaysi toifaga tegishli ekanligiga qarab, ta'sir katta yoki kichik bo'ladi”⁴.

Bu bilan faylasuf davlatdagi tabaqalanish tizimini tushuntirishga intilgan. Bu yerda insonlar faqatgina birgina turtki beruvchi shaxsga emas bir nechtasiga bo'ysunishlari ta'kidlanmoqda. Demak, bu joyda iyerarxiyaga o'xshash darajalarga ajralish amalga oshadi. Har bir guruh o'zining tepasida boshchiga va uning ustida undan ham yuqoriroq turuvchi boshqaruvchiga ega bo'ladi. Ularning ta'sir doirasi ham hukumronlik qiluvchi guruhdagi insonlarning miqdoriga qarab farqlanadi. Ularning erkinlik darajasi ham aynan shu orqali chegaralanadi. Ular ko'proq yoki kamroq ko'rinishda ifodalana boshlaydi. Ta'sir doirasi qancha keng bo'lsa, o'zining erkinlik darajasi ham yuqori va ko'payib boraveradi. Lekin jamiyatda haddan tashqari erkinlikni kuzatish qiyin. Chunki har bir inson bir-birining ta'sir doirasiga kiradi. Shu tufayli ham ular mutlaq erkinlikni qo'lga kirita olamaydilar. To'g'ri qandaydir ma'noda yuqori ta'sir doirasiga ega shaxslar erkin faoliyatni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Ammo ta'kidlanganidek, ularning erkinligi

⁴ O'sha manba, C. 605-606.
www.pedagoglar.org

boshqa bir insonlarning erkinlik chegarasida tugaydi. Demak, insonlarning erkinlik chegarasi aynan ta'sir etish ulushi bilan o'lchanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Григорян С.Н., Сагадеев А.В. Избранные произведения мыслителей стран ближнего и среднего востока IX-XIV вв. – М., Соцэкгиз, 1961.
2. Игнатенко А.А. Ибн-Хальдун. – М.: Мысль, 1930. – 160 с.
3. Ефремова Н.В. Арабо-мусульманская философия // Работа выполнена в рамках Программы фундаментальных исследований Президиума РАН «Традиции и инновации в истории и культуре» (Тема номер 3. Традиция, обычай и ритуал в истории и культуре). – С. 176-199.
4. Raximdjanova D.S. Erkinlik tushunchasini transformatsion xususiyatini ikki davr o'rtasidagi differentsiatsiyasini sotsiologik so'rovnoma orqali tahlili. - International scientific journal of Biruni. ISSN (E) 2181-2993. - Volume 2, Issue 02. - Tashkent, 2023. – Pg. 33-46.
5. Raximdjanova D.S. Ibn Rushd falsafasida zaruriyat va erkinlikni zamondoshlari fikrlari inkori asosidagi o'ziga xos talqini. - Oriental Renaissance: innovative, educational, natural and social sciences. ISSN 2181-1784. - Volume 4, Issue 02. - Tashkent, 2024. – Pg. 562-570.